



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

2024-yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Samarqand viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **36,4** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,5** mingtaga kamaygan yoki **3,9** % ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **11,2** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024-yilning yanvar-martida **1,9** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,6** % ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024-yillar 1-aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024-yilning 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni (birlikda) va ulushi, foizda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023-y.		2024-y.
10 541	Samarqand sh.	10 584
1 252	Kattaqo'rg'on sh.	1 230
1 692	Oqdaryo	1 568
1 572	Bulung'ur	1 513
1 655	Jomboy	1 529
2 000	Ishtixon	1 744
2 036	Kattaqo'rg'on	1 721
872	Qo'shrabot	911
1 286	Narpay	1 220
1 923	Payariq	1 769
2 949	Pastdarg'om	2 665
1 030	Paxtachi	1 046
3 018	Samarqand	3 377
1 268	Nurobod	1 090
3 051	Urgut	2 733
1 717	Toyloq	1 697

2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **36 397** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 908** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida **10 584** tani yoki jamiga nisbatan **29,1 %** ni, Samarqand tumanida **3 377** tani yoki jamiga nisbatan **9,3 %** ni, Pastdarg'om tumanida **2 665** tani yoki jamiga nisbatan **7,3 %** ni tashkil etdi.

2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 2024-yil 1-aprel holatiga, birlikda

Samarqand sh.	18,0
Samarqand	14,5
Bulung'ur	12,8
Kattaqo'rg'on sh.	12,9
Oqdaryo	11,7
Jomboy	11,6
Nurobod	11,2
Payariq	11,2
Ishtixon	9,6
Toyloq	10,5
Kattaqo'rg'on	9,2
Qo'shrabot	10,6
Paxtachi	9,8
Pastdarg'om	8,2
Urgut	7,6
Narpay	7,4



2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **11,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan **0,7** birlikka pasaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,0** birlik, Samarqand tumanida **14,5** birlik, Bulung'ur tumanida **12,8** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **12,9** birlik va Oqdaryo tumanida **11,7** birlikka yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Samarqand shahar
18,0 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Ishtixon tumani
9,6 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Narpay tumani
7,4 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahrida **18,0** birlik, Samarqand tumanida **14,5** birlik, Bulung'ur tumanida **12,8** birlik, Kattaqo'rg'on shahrida **12,9** birlik, Oqdaryo tumanida **11,9** birlik, Jomboy tumanida **11,9** birlik, Nurobod tumanida **11,2** birlik, Payariq tumanida **11,2** birlik, Qo'shrabot tumanida **10,6** birlik, Toyloq tumanida **10,6** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024-yil 1-aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Samarqand shahar

18,0

Bulung'ur tumani

12,8

Oqdaryo tumani

11,7

Samarqand tumani

14,5

Kattaqo'rg'on shahar

12,9

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023-y.

2024-y.

469	Samarqand sh.	482
182	Samarqand	416
179	Pastdarg'om	148
149	Urgut	81
116	Bulung'ur	55
144	Oqdaryo	63
86	Kattaqo'rg'on	85
102	Ishtixon	73
113	Payariq	74
107	Toyloq	96
75	Jomboy	68
106	Nurobod	54
44	Paxtachi	65
64	Narpay	57
67	Kattaqo'rg'on sh.	43
61	Qo'shrabot	48

2024-yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda

Samarqand sh.	25,3
Samarqand	21,8
Pastdarg'om	7,8
Toyloq	5,0
Kattaqo'rg'on	4,5
Urgut	4,2
Payariq	3,9
Ishtixon	3,8
Jomboy	3,6
Paxtachi	3,4
Oqdaryo	3,3
Narpay	3,0
Bulung'ur	2,9
Nurobod	2,7
Qo'shrabot	2,5
Kattaqo'rg'on sh.	2,3


2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Samarqand shahri **25,3 %**, Samarqand tumani **21,8 %**, Pastdarg'om tumani **7,8 %**, Toyloq tumani **5,0 %**, Kattaqo'rg'on tumani **4,5 %**, Urgut tumani **4,2 %**, Payariq tumani **3,9 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024-yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 703 ta, sanoatda 309 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 120 ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Samarqand shahrida 482 ta, Pastdarg'om tumanida 148 ta, Samarqand tumanida 469 ta hamda Toyloq tumanida 96 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024-yillarning yanvar-marti davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024-yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **11 950** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida **5 019** (yoki **42,0 %**) ta, xizmatlar sohasida **2 905** (yoki **24,3 %**) ta, sanoat sohasida **2 150** (yoki **18,0 %**) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **1 305** (yoki **10,9 %**) ta va qurilish sohasida **571** (yoki **4,8 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, foizda




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo



Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi




Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import

■ 2023-y. ■ 2024-y.




■ 2023-y. ■ 2024-y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), foizda

2024-yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,2 %** ni tashkil qilib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **0,8** punktga ko'paygan. Ko'payishining asosiy sababi, kichik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, foizda




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **98,5 %** ni, yo'lovchi tashishda **96,4 %** ni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida **92,7 %** ni, yuk aylanmasida **86,1 %** ni, qurilishda **79,9 %**, chakana savdoda **84,2 %** ni, tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy hajmga nisbatan ulushi, foizda




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Samarqand sh.	841,8
Urgut	383,3
Jomboy	372,5
Kattaqo'rg'on	325,5
Samarqand	323,8
Kattaqo'rg'on sh.	312,3
Toyloq	210,3
Oqdaryo	194,4
Payariq	191,4
Pastdarg'om	167,5
Bulung'ur	148,6
Paxtachi	128,2
Nurobod	88,8
Narpay	74,3
Ishtixon	60,5
Qo'shrabot	31,5

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 854,8 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (841,8 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (312,3 mlrd. so'm), Urgut (383,3 mlrd. so'm), Jomboy (372,5 mlrd. so'm), Samarqand (323,8 mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (325,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qo'shrabot tumani (35,1 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so'm

2024-yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 47,7 % ni tashkil etdi.




2024-yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo, Bulung'ur, Payariq, Nurobod va Qo'shrabot tumanlari (100,0 %), Kattaqo'rg'on shahri (98,5 %), Kattaqo'rg'on tumani (87,9 %), Urgut tumani (75,8 %), Pastdarg'om tumani (61,3 %), Samarqand tumani (59,1 %), Paxtachi tumani (42,9 %), Jomboy tumani (42,6 %), Narpay tumani (35,4 %), Toyloq tumani (38,6%) va Samarqand shahri (26,3 %) ni tashkil etdi.

Bulung'ur	100,0
Oqdaryo	100,0
Qo'shrabot	100,0
Payariq	100,0
Nurobod	93,8
Kattaqo'rg'on sh.	74,3
Kattaqo'rg'on	65,3
Urgut	62,4
Pastdarg'om	61,2
Samarqand	59,1
Paxtachi	42,9
Jomboy	42,6
Toyloq	38,6
Narpay	35,4
Samarqand sh.	26,3
Ishtixon	21,6

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Toyloq	73,5	26,6
Pastdarg'om	68,4	48,3
Nurobod	31,1	96,1
Payariq	177,6	91,8
Qo'shrabot	36,1	86,4
Kattaqo'rg'on sh.	33,9	94,4
Bulung'ur	80,4	85,4
Urgut	100,6	97,4
Samarqand sh.	386,8	89,2
Ishtixon	89,6	97,9
Kattaqo'rg'on	44,8	96,4
Paxtachi	51,6	96,7
Narpay	48,5	98,4
Oqdaryo	139,9	87,1
Samarqand	125,7	96,1
Jomboy	88,4	99,1


2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 1 576,9 milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 79,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri (386,8 mlrd. so'm), Payariq (177,6 mlrd. so'm), Oqdaryo (139,9 mlrd. so'm), Samarqand (125,7 mlrd. so'm), Ishtixon (89,6 mlrd. so'm), Urgut (100,6 mlrd. so'm), Jomboy (88,4 mlrd. so'm) hamda Bulung'ur (80,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

hajmi, mlrd. so'mda ————— ↑
 ulushi, % ————— ↑

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3 059,2** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **42,8 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan **100,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Samarqand shahri (**3 117,8** mlrd. so'm), Payariq (**824,8** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**661,5** mlrd. so'm), (313,0 mlrd. so'm), Jomboy (**435,6** mlrd. so'm), Samarqand (**354,7** mlrd. so'm), Qo'shrabot (**208,3** mlrd. so'm), Narpay (**192,7** mlrd. so'm) va Paxtachi (**170,4** mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi


Toyloq	99,6	61,3
Pastdarg'om	661,5	51,0
Nurobod	117,8	80,8
Payariq	409,5	75,2
Qo'shrabot	208,8	52,8
Kattaqo'rg'on sh.	72,2	71,4
Bulung'ur	160,5	89,9
Urgut	313,0	94,8
Samarqand sh.	3 117,8	11,2
Ishtixon	180,1	94,7
Kattaqo'rg'on	142,8	93,8
Paxtachi	170,4	81,8
Narpay	192,7	89,4
Oqdaryo	93,7	82,0
Samarqand	354,7	88,4
Jomboy	435,6	98,8

hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5 421,8 mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining 92,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi.

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p yetishirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Urgut (770,8 mlrd. so'm), Toyloq (512,5 mlrd. so'm), Pastdarg'om (480,1 mlrd. so'm), Ishtixon (472,2 mlrd. so'm), Samarqand (443,1 mlrd. so'm), Payariq (424,2 mlrd. so'm), Bulung'ur (275,8 mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Kattaqo'rg'on sh.	21,0	99,9
Samarqand sh.	24,5	57,8
Samarqand	443,1	73,7
Qo'shrabot	320,7	99,6
Narpay	229,8	99,4
Nurobod	260,5	98,3
Toyloq	512,5	71,6
Jomboy	247,2	81,3
Paxtachi	308,8	99,7
Oqdaryo	341,5	91,4
Ishtixon	472,2	99,7
Kattaqo'rg'on	399,6	95,4
Bulung'ur	275,8	97,3
Payariq	424,2	99,7
Urgut	770,8	99,0
Pastdarg'om	480,1	99,1

hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, %

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, foizda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **5 538,0** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **84,2 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2023-yilning tegishli davriga nisbatan **110,3 %** ni tashkil qildi.

2024-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Qo'shrabot	131,3	99,1
Nurobod	105,1	98,8
Oqdaryo	156,1	99,2
Paxtachi	119,0	99,0
Toyloq	194,9	98,0
Ishtixon	257,9	99,4
Jomboy	250,5	99,2
Payariq	194,6	99,0
Narpay	329,7	99,5
Bulung'ur	412,9	98,1
Pastdarg'om	225,0	96,2
Kattaqo'rg'on	320,0	95,6
Samarqand	526,5	72,1
Kattaqo'rg'on sh.	254,5	99,9
Urgut	632,9	98,0
Samarqand sh.	1 457,0	65,3

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahri (**1 457,0** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**254,5** mlrd. so'm), Urgut (**632,9** mlrd. so'm), Samarqand (**526,5** mlrd. so'm), Bulung'ur (**412,9** mlrd. so'm), Kattaqo'rg'on (**320,0** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**225,0** mlrd. so'm) va Narpay (**329,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm



hajmi, mlrd. so'mda
ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda




Samarqand sh.	1 693,8
Samarqand	449,4
Pastdarg'om	386,8
Urgut	377,9
Jomboy	271,1
Toyloq	250,3
Kattaqo'rg'on	232,0
Payariq	231,7
Ishtixon	227,8
Narpay	215,7
Oqdaryo	199,1
Bulung'ur	159,1
Kattaqo'rg'on sh.	148,8
Qo'shrabot	128,2
Paxtachi	127,7
Nurobod	121,3

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 220,8** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,4 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **111,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Samarqand shahri (**1 693,8** mlrd. so'm), Samarqand (**449,4** mlrd. so'm), Pastdarg'om (**386,8** mlrd. so'm), Urgut (**377,9** mlrd. so'm), Jomboy (**271,1** mlrd. so'm), Toyloq (**250,3** mlrd. so'm) va Kattaqo'rg'on (**232,0** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida **36,8 %** (**1 120,1** mlrd. so'm), transport xizmatlarida **33,6 %** (**983,1** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda **6,7 %** (**843,6** mlrd. so'm) hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida **5,7 %** (**682,3** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **0,4 %** (**41,2** mlrd. so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSh. dol.




Ulushi, %




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSh. dol.




Ulushi, %



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **191,6** million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining **34,4** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Nurobod	0,2	100,0
Qo'shrabot	0,9	100,0
Kattaqo'rg'on sh.	15,0	100,0
Bulung'ur	3,8	100,0
Oqdaryo	6,0	100,0
Payariq	3,7	100,0
Urgut	10,9	83,6
Kattaqo'rg'on	1,8	97,6
Ishtixon	1,7	52,0
Narpay	1,7	38,8
Pastdarg'om	2,5	65,8
Toyloq	1,2	32,2
Samarqand	6,2	38,5
Paxtachi	1,4	64,1
Jomboy	6,9	42,2
Samarqand sh.	12,8	15,5


hajmi, mln. AQSh. dollar

ulushi, %

2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Payariq, Oqdaryo, Bulung'ur, Qo'shrabot, Nurobod tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida **100,0** %, Kattaqo'rg'on tumanida **97,6** %, Urgut tumanida **83,6** %, Pastdarg'om tumanida **65,8** %, Ishtixon tumanida **52,0** %, Narpay tumanida **38,8** %, va Toyloq tumanida **32,2** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Samarqand shahri **15,5** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024-yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, foizda



2024-yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **191,6** million AQSh dollarini yoki jami importning **34,4** % ini tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, foizda

2024-yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Kattaqo'rg'on shahar, Payariq, Bulung'ur, Nurobod va Qo'shrabot tumanlarida **100,0** %, Ishtixon tumanida **99,6** %, Paxtachi tumanida **98,8** %, Kattaqo'rg'on tumanida **96,5** %, Oqdaryo tumanida **93,1** %, Urgut tumanida **84,9** %, hamda Narpay tumanida **82,0** % ni tashkil etdi.

Payariq	100,0
Qo'shrabot	100,0
Bulung'ur	100,0
Kattaqo'rg'on sh.	100,0
Nurobod	100,0
Ishtixon	99,6
Paxtachi	98,8
Kattaqo'rg'on	96,5
Oqdaryo	93,1
Urgut	84,9
Narpay	82,0
Pastdarg'om	67,9
Samarqand	55,6
Jomboy	34,2
Toyloq	31,3
Samarqand sh.	19,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati

91,5 %

Yuk
tashishda

2024-yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,9 %** ni tashkil qildi.

86,1 %

Yuk
aylanmasida

2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **86,1 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,8 %** ni tashkil qildi.

96,4 %

Yo'lovchi
tashishda

2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,4 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,7 %** ni tashkil qildi.


98,5 %

Yo'lovchi
aylanmasida

2024-yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,5 %** ni tashkil etib, 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024-yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 987** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **892 (44,9 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **972 (48,9 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **123 (6,2 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda **46,1 % (916 ta)**, xizmatlar sohasida **29,5 % (587 ta)**, sanoatda **14,2 % (283 ta)**, qurilishda **6,0 % (119 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **4,2 % (82 ta)**ni tashkil etdi.

2024-yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

652	Samarqand sh.	32,8
72	Kattaqo'rg'on sh.	3,6
64	Oqdaryo	3,2
88	Bulung'ur	4,4
83	Jomboy	4,2
92	Ishtixon	4,6
82	Kattaqo'rg'on	4,1
48	Qo'shrabot	2,4
74	Narpay	3,7
84	Payariq	4,2
132	Pastdarg'om	6,6
59	Paxtachi	3,0
199	Samarqand	10,0
55	Nurobod	2,8
114	Urgut	5,7
89	Toyloq	4,5


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Samarqand shahri (**652** ta), Samarqand (**199** ta), Urgut (**114** ta), Pastdarg'om (**132** ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning I choragida **318** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **892** taga yetgan yoki 2019-yilning I choragiga nisbatan **574** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilda **674** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-martida **972** ta yoki **298** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **112** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib **123** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan **11** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning I choragida **343** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **941** taga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **598** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019-yilning I choragida **683** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragida **761** ta yoki **78** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019-yilning I choragida **81** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **153** tani tashkil etib, **72** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **35,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **31,3** % ga yetgan yoki 2019-yilga nisbatan **4,1** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilda **52,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning I choragida **62,8** % yoki **10,7** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilda **12,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, bu ko'rsatkich **5,8**% ga yetgan yoki **6,7** % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024-yillar I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), foizda




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019-yilning I choragida **41,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga kelib esa **33,5** % ga yetgan yoki 2019-yilning I choragida nisbatan **7,8** % birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019-yilning I choragida **52,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-martida **56,9** % yoki **4,8** % birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019-yilning I choragida **6,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **9,6** % yoki **3,0** % birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024-yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 47,2 % ni, xizmatda sohasida 44,1 % ni, sanoatda 43,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 57,3 % ni, xizmatlar sohasida 50,4 %, sanoatda 50,5 % ni, qurilish 47,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda 14,3 %, sanoatda 9,7 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 6,1 % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, foizda



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda **61,8** % ni, xizmatlar sohasida **61,2** % ni, savdoda **59,9** % ni va qurilishda **58,0** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **40,2** % ni, savdoda **38,0** % ni va xizmatlar sohasida **35,6** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda **5,9** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **4,9** % ni hamda sanoatda **3,2** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, foizda


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	50,7	41,0	8,2
Band bo'lganlar soni	31,1	62,8	7,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	38,9	56,5	4,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,6	64,1	5,3
Raqobat muhiti	44,6	52,6	2,8

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	58,7	37,8	3,5
Band bo'lganlar soni	37,6	59,0	3,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	41,9	54,8	3,3
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	37,1	59,6	3,3
Raqobat muhiti	47,4	50,5	2,1


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, foizda



2024-yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, foizda



* Faqat raqobat muhitiga tegishli